

LOGOTIP YARATISH UCHUN TANLOV E'LON QILINMOQDA!

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zamonaviy, original, osonlik bilan tan olinadigan logotipini yaratish uchun professional grafik dizaynerlar, rassomlar hamda rassomlik mahoratga ega bo'lgan kreativ shaxslar uchun tanlov e'lon qilmoqda.

Logotipning mafkuraviy va g'oyaviy tarkibi vazirlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga, shuningdek qonuniy, madaniy va estetik standartlarga mos bo'lishi lozim.

Ishtirokchi boshqa birovlarining mualliflik va turdosh huquqlarini tanlov ishlarida buzgan taqdirda, barcha huquqbuzarlikka shaxsan javobgar hisoblanadi.

Tanlov ishi o'zida grafik qism va tushuntirish xatini jamlashi lozim.

Grafik qism tasvirdan iborat, osonlik bilan o'qiladigan, "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi" yozuvli original logotipni tashkil etishi va tasvir, eskiz, chizma, grafik maket hamda 3D-render shakllarida taqdim etilishi mumkin.

Tushuntirish xati ixtiyoriy shaklda bo'lib, u taqdim etilgan vazirlik logotipi konsepsiyasini dizayndagi ma'naviy-mafkuraviy elementlarini talqin etish orqali aks ettirishi kerak.

Barcha materiallar ddjuraeva@mf.uz; pressservice.mfuzb@gmail.com elektron manzillari orqali qabul qilinadi.

Tanlov 2 bosqichda o'tkaziladi:

I bosqich: 2018 yil 25 iyundan 5 iyulgacha - tanlov ishlari ko'rib chiqiladi;

II bosqich: 2018 yil 6 iyuldan 11 iyulgacha - ishlarni baholash.

Tanlov g'olibi eng kam ish haqining 25 barovar miqdorida mukofotlanadi.

Tanlov tashkilotchisi - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Axborot xizmati.